

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

**“BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT” FAKULTETI
“BUXGALTERIYA HISOBI ” KAFEDRASI**

“HIMOYAGA RUXSAT ETILDI”
Kafedra mudiri, prof. Xolbekov R.O.

«_____»_____2012yil

**Tijorat banklarida asosiy vositalar va ularning buxgalteriya hisobi
mavzusida yozilgan**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

“HIMOYAGA TAVSIYA ETILADI”
Ilmiy rahbar: kat.o'q. Turkmanov A.S.

«_____»_____2012 yil

**Bajardi: «Buxgalteriya hisobi va audit»
yo'nalishi bitiruvchi 4-kurs talabasi
Umarov Umid Dilshod o'g'li**

«_____»_____2012 yil

TOSHKENT – 2012

MUNDARIJA

Kirish.....	3
-------------	---

1bob. Iqtisodiyotni ekinlashtirish sharoitida tijorat banklarida

asosiy vositalar hisobining nazariy asoslari.....	7
--	----------

1.1. Iqtisodiyotni ekinlashtirish sharoitida tijorat banklarida asosiy vositalar hisobining maqsadi va vazifalari.....	7
--	---

1.2. Tijorat banklarida asosiy vositalarni hisobining nazariy asoslari	
--	--

2.bob. OATB “Asia Alliance Bank”da asosiy vositalar va ularning buxgalteriya hisobini tashkil qilish

2.1. OATB “Asia Alliance Banki”da asosiy vositalarni sotib olishni hisobga olish	
--	--

2.2. OATB “Asia Alliance Banki” garovga egalik huquqini qo'llash yo'li bilan olingan asosiy vositalarni hisobga olish	
---	--

2.3. OATB “Asia Alliance Bank” asosiy vositalarni qayta baholash hisobi	
---	--

2.4. OATB “Asia Alliance Banki” asosiy vositalarning amortizatsiyasini hisoblash	
--	--

3.bob. OATB “Asia Alliance Bank”da asosiy vositalar harakati, inventarlash va hisobotni tayyorlash hamda takomillashtirish

3.1. OATB “Asia Alliance Bank”da asosiy vositalarning bosh bank va uning fiallari o'rtasidagi harakatini hisobga olish	
--	--

3.2. OATB “Asia Alliance Bank” da asosiy vositalarni inventarlash hisobi	
--	--

3.3. OATB “Asia Alliance Bank” moliyaviy hisoboti asosiy vositalar bo'yicha hisobotni tayyorlash va takomillashtirish	
---	--

Xulosa va takliflar

Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston jadal o'sishga erishdi va global moliyaviy inqirozga qarshi samarali choralar ko'rdi. Keyingi besh yilda O'zbekistonda o'sish sur'atlari o'rtasha 8,5 foizni tashkil etdi va bu Markaziy Osiyodagi o'rtacha o'sish ko'rsatkichidan yuqoridir. Qator yillar davomida kuzatilgan byudjet profitsiti, rasmiy zaxiralar darajasining yuqoriligi, davlat qarzining kamligi, barqaror bank tizimi va xalqaro moliya bozorlaridan qarz olishga ehtiyotkorlik bilan yondashish mamlakatni global inqirozning bevosita oqibatlaridan himoya qildi.

Agar 2010 yilda mamlakatimizning 15 ta tijorat banki "barqaror" reytingini olgan bo'lsa, hozirgi kunda ularning soni 23 taga etdi, bu banklarning aktivlari yurtimiz bank tizimi umumiy aktivlarining 98 foizini tashkil etmoqda.

Ma'lumki, aholining bank tizimiga ishonchi ortib borayotgani banklar faoliyati samaradorligining muhim ko'rsatkishi hisoblanadi.

Shu ma'noda, 2011 yilda depozitlarga 18 trillion so'mdan ortiq, o'tgan yilga nisbatan 36,3 foiz ko'p mablag' jalb qilingani, jumladan, aholi depozitlari 38,8 foizga oshgani, ayniqsa, e'tiborlidir.

Banklarning kredit portfeli tarkibi sifat jihatidan tubdan o'zgarmoqda. Agar 2000 yilda kredit portfelining 54 foizi tashqi qarzlardan hisobidan shakllantirilgan bo'lsa, 2011 yilda uning 85,3 foizi ichki manbalar — yuridik va jismoniy shaxslar depozitlari hisobidan shakllantirildi. Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiyotimiz tarmoqlariga investitsiya kiritish va shuning hisobidan taraqqiyotimizni ta'minlashda ichki imkoniyatlarimiz tobora ortib borayotganining dalilidir.

Tijorat banklarining investitsiyaviy faolligi ortmoqda. Tijorat banklari qo'yilmalarining 75 foizdan ortig'ini ush yildan ziyod bo'lgan uzoq muddatli investitsiya kreditlari tashkil etmoqda. Umuman, so'nggi o'n yilda banklarimiz tomonidan iqtisodiyotning real sektorini kreditlash 7 barobar oshganini alohida qayd etish lozim, deb o'ylayman¹ deb takidlagan.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. "Xalq so'zi" 2012 yil 20 yanvar, №14 (5434).

Mamlakatimiz rahbari I.A. Karimovning ko'rsatib o'tganidek, «Bugungi kunda banklarimizning umumiy aktivlari hajmi aholi va yuridik shaxslarning hisob raqamlaridagi mablag'lardan ikki baravardan ko'pdir. Bu esa Ushbu mablag'larni ishonshli himoya qilish hamda ularga o'z vaqtida va to'la hajmda xizmat ko'rsatishni kafolatlaydi.

SHuni ta'kidlashni istardimki, tijorat bank tizimini rivojlantirish va mustahkamlash masalasi doimio e'tiborimiz markazida bo'lib kelmoqda va u o'zining ijobiy natijalarini bermoqda. Biroq bu boradagi ishlarni yanada chuqurlashtirish va kengaytirish kerak. Nega deganda, aynan banklar ta'bir joiz bo'lsa, butun iqtisodiyotimizni oziqlantirib turadigan qon tomirlari hisoblanadi, mamlakatimizning moliyaviy-iqtisodiy barqarorligi ko'p jihatdan ularning samarali faoliyatiga bog'liq»².

Yuqorida keltirib o'tilgan fikrlar «Tijorat banklarida asosiy vositalar va ularning buxgalteriya hisobi» mavzusini haqiqatda dolzarb ekanligidan dalolat beradi va bitiruv malakaviy ishi mavzusi sifatida tanlanishini asoslab beradi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi tijorat banklarida asosiy vositalar va ularning buxgalteriya hisobini tashkil qilish uslubiyatini rivojlantirishda rossiyalik iqtisodshi olimlardan V.I. Bunamo, O.I. Lavrushin, A.G. Kuminov, L.N. Kralivetskaya, Yu.S. Maslanshenkov, A.A. Kazimagomedov, V.I. Belotserkovskiy, V.N. Kursov, S. Fisher, A. Gryaznova, O. Ostrovskaya, shuningdek respublikamizning shu soha olimlaridan A. Ibragimov, N. Jo'raev, I. Abdukarimov, F. Abduvohidov va boshqalar o'zlarining munosib hissalarini qo'shganlar va qo'shib kelmoqdalar.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari. Tijorat banklarining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olib, asosiy vositalar hisobini to'g'ri tashkil etishda ularning nazariy, uslubiy asoslarini o'rganish, tadqiq etish orqali iqtisodiyotni globallashtirish sharoitlaridan kelib chiqib, xalqaro andozalarga moslashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

² Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009,5-b.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadiga erishish uchun quyidagi vazifalarni bajarishga e'tibor qaratiladi:

- Iqtisodiyotni ekinlashtirish sharoitida tijorat banklarida asosiy vositalar hisobining maqsadi va vazifalari iqtisodiy mazmunini ochib berish;
- Tijorat banklarida asosiy vositalar hisobining nazariy asoslarini yoritish;
- OATB "Asia Alliance Banki"da asosiy vositalarni sotib olishni hisobga olishning mohiyatini yoritish;
- OATB "Asia Alliance Banki" garovga egalik huquqini qo'llash yo'li bilan olingan asosiy vositalarni hisobga olishning mohiyatini yoritish;
- OATB "Asia Alliance Bank" asosiy vositalarni qayta baholash hisobining o'ziga xos xususiyatlari;
- OATB "Asia Alliance Banki" asosiy vositalarning amortizatsiyasini hisoblashning hozirgi holatini o'rganish;
- OATB "Asia Alliance Bank" asosiy vositalarning bosh bank va uning filiallari o'rtasidagi harakatini hisobga olish uslubini tadqiq etish;
- OATB "Asia Alliance Bank" asosiy vositalarni inventarlash hisobi uslubini tadqiq etish;
- OATB "Asia Alliance Bank" asosiy vositalar bo'yicha hisobotni tayyorlash va takomillashtirish masalalari yuzasidan tavsiyalarni ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti. OATB "Asia Alliance Bank"ning asosiy vositalar hisobini tashkil qilish va yuritish borasidagi tajribasini o'rganish, umumlashtirish hamda tartibga solish asosida OATB "Asia Alliance Bank"ning asosiy vositalaridan samarali foydalanish uchun boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ularning buxgalteriya hisobining ahamiyatini oshirishga yo'naltirilgan amaliy tavsiya va takliflar ishlab chiqish, shuningdek amaldagi qonunlar va me'yoriy hujjatlar doirasida takomillashtirish hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti. OATB "Asia Alliance Bank"ning asosiy vositalar hisobini tashkil qilish va yuritish bilan bog'liq buxgalteriya hisobi faoliyati hisoblanadi.

Ilmiy yangiliklari. Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiliklari quyidagilardan iborat:

- Iqtisodiyotni ekinlashtirish sharoitida tijorat banklarida asosiy vositalar hisobining maqsadi va vazifalari iqtisodiy mazmunini ochib berildi;
- Tijorat banklarida asosiy vositalar hisobining nazariy asoslari yuzasidan fikrlar berildi;
- OATB “Asia Alliance Banki”da asosiy vositalarni sotib olishni hisobga olishning mohiyatini yoritildi;
- OATB “Asia Alliance Banki” garovga egalik huquqini qo’llash yo’li bilan olingan asosiy vositalarni hisobga olishning mohiyatini yoritildi;
- OATB “Asia Alliance Bank” asosiy vositalarni qayta baholash hisobining o’ziga xos xususiyatlari yoritildi;
- OATB “Asia Alliance Banki” asosiy vositalarning amortizatsiyasini hisoblashning hozirgi holatini urganildi;
- OATB “Asia Alliance Bank” asosiy vositalarning bosh bank va uning filiallari o’rtasidagi harakatini hisobga olish uslubini tadqiq etish;
- OATB “Asia Alliance Bank” asosiy vositalarni inventarlash hisobi uslubini tadqiq etidi;
- OATB “Asia Alliance Bank” asosiy vositalar bo’yicha hisobotni tayyorlash va takomillashtirish masalalari yuzasidan tavsiyalarni ishlab chiqildi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati. Tijorat banklarida asosiy vositalar hisobini tashkil etishning avvalgi ishlarda ko’p etibor berilmagan jihatlari oshilganligi hamda muomalalar uyg’unligida takomillashtirish yo’nalishlari yuzasidan tavsiyalar ishlab shiqilganligi ilmiy yangilik sifatida taqdim etilmoqda.

Bitiruv malakaviy ishining natijalariga ko’ra olingan tavsiyalar va takliflar tijorat banklari asosiy vositalar hisobini shakllantirish, ularni hisobga olish usullarini mustahkamlash yo’llarini ishlab chiqishga yo’naltirilgan.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, ushta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati, ilovadan iborat.

1bob. Iqtisodiyotni ekinlashtirish sharoitida tijorat banklarida asosiy vositalar hisobining nazariy asoslari

1.1. Iqtisodiyotni ekinlashtirish sharoitida tijorat banklarida asosiy vositalar hisobining maqsadi va vazifalari.

Barcha sohalarda bo'lgani kabi moliya bozorida, shu jumladan, bank sektorida o'tkazilayotgan islohotlar natijasida sezilarli siljishlar va o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bu o'zgarishlar mustaqillik yillarida jahon andozalariga mos keladigan bank tizimini bosqishma-bosqish barpo etish bilan hamohang tarzda davom ettirilmoqda.

Har qanday mamlakat iqtisodiyotining tayanadigan asosiy ustunlaridan biri bo'lib moliyaviy jihatdan mustahkam va barqaror faoliyat ko'rsatuvshi bank tizimi hisoblanadi. SHuning uchun mustaqil davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi va kelajakdagi taraqqiyoti avvalo mazkur mamlakatda barpo etilgan va muntazam ravishda takomillashtirilib boriladigan bank tizimining faoliyatiga bog'liqdir.

Banklarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular o'z mablag'lari bilangina emas, balki omonatshilar va kreditorlar, aktsiyadorlar hamda mijozlar ularga ishonib topshirgan mablag'lar bilan, ya'ni keng jamoatshilik bilan ish ko'radi.

Iqtisodiyotni ekinlashtirish sharoitida bank tizimi eng zarur jamoatshilik muassasalari tizimlaridan biri ekan, har qanday bankning muvaffaqiyatsizligi butun jamiyat miqyosida pul taklifi qisqarishi, to'lov tizimi buzilishi hamda hukumat yirik va kutilmagan majburiyatlarining vujudga kelishi kabi salbiy makroiqtisodiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Mamlakatimizda 2009 yilda «Asia Alliance Bank» xususiy oshiq aktsiyadorlik tijorat bankining tashkil etilishi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2010 yil 9 yanvardagi qaroriga muvofiq «Hi-Tesh Bank» xususiy yopiq aktsiyadorlik tijorat bankiga bank operatsiyalarini amalga oshirish bo'yicha litsenziya berilishi natijasida jami tijorat banklari soni 30 taga etdi. «Hi-Tesh Bank» xususiy yopiq aktsiyadorlik tijorat bankining ustav kapitali 5,25 mlrd.

soʻmdan koʻproq miqdorda shakllantirilib, uning 51 foizi jismoniy shaxslarning mablagʻlari hisobiga toʻgʻri keladi. Ushbu yangi bankning oshilishi mamlakatimiz Prezidentining «Xususiy aktsiyadorlik tijorat banklari tuzishni ragʻbatlantirish shora tadbirlari toʻgʻrisida»gi Farmoni talablari izchil amalga oshirilayotganining yana bir tasdigʻidir³.

Banklar kapitallashuv darajasi va likvidligining oshishi pirovardida ular moliyaviy barqarorligining taʼminlanichiga, shuningdek, keng koʻlamli islohotlarni amalga oshirishda banklarning investitsiya kreditlari orqali ishtirokini faollashtirishga xizmat qiluvshi barqaror resurs bazasining shakllanichiga zamin yaratadi.

Banklar kapitallashuv darajasi va likvidligining oshishi pirovardida ular moliyaviy barqarorligining taʼminlanichiga, shuningdek, keng koʻlamli islohotlarni amalga oshirishda banklarning investitsiya kreditlari orqali ishtirokini faollashtirishga xizmat qiluvshi barqaror resurs bazasining shakllanichiga zamin yaratadi.

Tijorat banklarida asosiy vositalar - bir yildan koʻproq foydali xizmat qilish muddatiga ega boʻlgan; ishlab chiqarish yoki tovarlarni stkazib berish, maʼmuriy maqsadlar uchun foydalaniladigan yoki ijaraga beriladigan aktivlar⁴.

Koʻchmas mulk, uskunarlar va jhozlar — bir yildan oshiq foydali xizmat muddatida foydalanishga moʻljallangan, ishlab chiqarish yoki tovarlarni etkazib berish, maʼmuriy maksadlar uchun foydalaniladigan yoki ijaraga beriladigan moddiy aktivlar. Ular asosiy vositalar tarkibiga kiradi. SHuning uchun ularni koʻgtinsha asosiy vositalar dsb atashadi.

Boshlangʻich (haqiqiy) qiymat - toʻlangan soliqlar, bojxona bojlari va yigʻimlarini, shuningdek aktivni undan moʻljal boʻyicha foydalanish uchun ishshi holatiga keltirish bilan bevosita bogʻliq boʻlgan etkazib berish va montaj qilish,

³Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir» hamda «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir» nomli maʼruzalarini oʻrganish boʻyicha Oʻquv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot. - 2010. – 340 bet.

⁴A.K. Ibragimov Halqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida banklarda buxgalteriya hisobi oʻquv qoʻllanma . T.: 2011y.

o'rnatish, ishga tushirish va istalgan boshqa xarajatlarni hisobga olgan holda, asosiy vositalarni tiklash (qurish va qurib bitkazish) yoki xarid qilish bo'yicha haqiqatda qilingan xarajatlarning haqiqiy summasi. Boshlang'ich qiymat shuningdek, bank aktivni xarid qilish chog'ida yoki ushbu aktivdan asosiy bo'lmagan faoliyat maqsadlarida muayyan davr mobaynida foydalanish natijasida unga nisbatan majburiyatni o'z zimmasiga olgan dastlabki taxmin qilingan aktivni demontaj qilish va yo'qotish yoki aktivni tiklash xarajatlari bahosini o'z ichiga oladi.

Asosiy vositalarning Boshlang'ich qiymati ularning haqqoniy qiymatini qayta baholash sanasida aks ettirish uchun vaqti-vaqti bilan qayta baholanadi.

SHuning uchun ham Boshlang'ich qiymat asosiy vositaning tannarxi xam deb atadadi.

balans qiymati - aktiv buxgalteriya balansida jamlangan amortizatsiyasi hamda qiymatining tushishidan yig'ilgan zararlar chegirilgandan so'ng tan olinadigan summa;

tugatish qiymati - bank mazkur paytda aktivning chiqib ketishidan chiqib ketish bo'yicha kutilayotgan xarajatlar chegirilgandan so'ng oladigan, agar aktiv eskirgan va kutilayotgandek holatda bo'lsa, uning foydali xizmat muddati oxirida olinishi kutilayotgan summa;

haqqoniy (real) qiymat - aktivning joriy bozor qiymati yoki qonun hujjatlariga muvofiq baholash faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'lgan mustaqil ekspertlar tomonidan belgilanadigan qiymati;

tiklash qiymati - asosiy vositalarning bank buxgalteriya balansida qayta baholashni hisobga olgan holdagi qiymati;

foydali xizmat muddati - bank aktivdan foydalanishni kutayotgan (hisob-kitob) davr yoki bank ushbu aktivdan foydalanishdan olishni mo'ljallayotgan ishlar va xizmatlar miqdori;

amortizatsiya (eskirish) - foydali xizmat muddati mobaynida aktivning amortizatsiyalanadigan qiymatini bank xarajatlariga muntazam taqsimlash va o'tkazish ko'rinishida eskirishning qiymat ifodasi;

amortizatsiyalanadigan qiymat - aktivning tugatish qiymatini shegirgan holda moliyaviy hisobotlarda ko'rsatilgan Boshlang'ich (tiklash) qiymati summasi;

qiymatni tushishidan zarar - aktivning balans qiymati uning to'lanadigan qiymatidan oshadigan summa;

sotishning sof bahosi - umumiy shartlarda xabardor qilingan, bitimni amalga oshirishni xohlovshi, mustaqil taraflar o'rtasida bitimni amalga oshirishda aktivni sotishdan olinadigan summa;

foydalanish qiymati (qimmati) - aktivdan foydalanishni davom ettirishdan va uning foydali xizmat muddati oxirida chiqib ketishidan kutilayotgan taxmin qilinayotgan kelgusidagi pul oqimlarining diskontlangan qiymati;

Asosiy vositalarni hisobga olishning asosiy qoidalar bo'lib ularning balans qiymati va ushbu aktivlarga nisbatan qo'llanilishi lozim bo'lgan amortizatsiya usullarini aniqlash, shuningdek asosiy vositalarning balans qiymatining o'zgarishi, amortizatsiya hisoblash tartibi va ularning chiqib ketishidan moliyaviy natijalarni aniqlash va hisobga olish hisoblanadi.

Asosiy vositalar quyidagilar natijasida bank balansiga kiritiladi:

- 1) haq evaziga sotib olish;
- 2) qurilish yoki ob'ektlarni rekonstruktsiya qilish yo'li bilan olish;
- 3) tekinga yoki subsidiya ko'rinishida olish;
- 4) moliyaviy ijara (lizing) shartnomasi bo'yicha olish;
- 5) ortiqsha (hisobga olinmagan) asosiy vositalarni aniqlash.

Asosiy vosita bankning buxgalteriya yozuvlarida uning qiymati aniq (ishonshli) baholangandagina tan olinadi.

Aktivdan kelib tushadigan kelgusidagi iqtisodiy foyda xizmatlarni sotishdan olingan tushum, xarajatlar tejami va bank aktivdan foydalanishi natijasi hisoblangan boshqa foydalarni o'z ichiga oladi.

Bank tomonidan moliyaviy lizingga berish maqsadlarida sotib olingan asosiy vositalarning hisobi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining alohida me'yoriy-huquqiy hujjati bilan tartibga solinadi.

1.2. Tijorat banklarida asosiy vositalarni hisobining nazariy asoslari

Shu o'rinda O'zbekistonda moliyaviy-iqtisodiy, byudjet, bank-kredit tizimi, shuningdek, iqtisodiyotning real sektori korxonalari va tarmoqlarining barqaror hamda o'zluksiz ishlashini ta'minlash uchun etarli darajada mustahkam zaxiralar yaratilganini va zarur resurslar bazasi mavjud ekanini ta'kidlash joiz.

Modernizatsiyalash sharoitida asosiy vositalarni hisobi va auditini amalga oshirishda nazariy va uslubiy asoslar bo'lib, shu soxaga tegishli va respublikamizda amal qilayotgan me'yoriy xujjatlar hisoblanadi. Shu bilan birga rekonstruktsiya va modernizatsiyalash ishlarining juda keng tarmoqlarga tegishli ekanigini inobatga oladigan bo'lsak, xar bir tarmoq xususiyatlaridan kelib chiqib, tegishli tarmoq korxonalarining faoliyati bilan bog'liq bo'lgan xujjatlar hisoblanadi.

Asosiy vositalarni modernizatsiyalash hisobini yuritishda O'zR Prezidentining 2007 yil 17 martdagi "Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jixozlashni ragbatlantirishga oid qushimsha shora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni⁵ muxim asos bo'lib hisoblanadi.

Mazkur Farmonda xo'jalik sub'etlari tomonidan ishlab chiqarishni muntazam modernizatsiyalash, texnik va texnologik jixatdan qayta jixozlash, uni yuqori sifatli, raqobatbardosh, eksportga yunaltirilgan maxsulot ishlab chiqarishni kupatirish imkonini beradigan ilg'or zamonaviy uskunalar bilan ta'minlash va buning uchun sub'ektlarni ragbatlantirish shora-tadbirlari yoritib berilgan.

BXMSning 5-sonida⁶ asosiy vositalar bilan bog'liq kapital xarajatlarning kiymati aniklangan bo'lishi hamda kelgusida iqtisodiy samara berish sharti bilan asosiy vositalarning kiymatiga qushilishi mumkinligi, kolgan barcha xarajatlar esa, ular sarflangan davr uchun xarajatlar sifatida tan olinishi lozimligi ta'kidlab utilgan.

Asosiy vositalarni modernizatsiyalash xarajatlarini hisobini yuritishda avvalambor, ularni to'zatisht, modernizatsiyalash ishlari xarajatlaridan farklarini kurib utish lozim bo'ladi, deb hisoblaymiz va bu borada iqtisodshi olimlarning fikrlarini urganib chiqamiz.

O.Bobojonov, K.Jumaniyozovlar «Kapital sarflar yoki kapital kuyilmalar deb asosiy

⁵ Xalq so'zi, 2007 yil 15 mart, 52-son.

⁶ BXMS №5 «Asosiy vositalar», 1998 yil 23 avgust, № 491

vositalar va boshqa uzoq muddatli foydalaniladigan aktivlarni sotib olish va yaratish bilan bog'liq bo'lgan sarflarga aytiladi»⁷ deb, kapital kuyilmalarga ta'rif berishgan. Bu ta'rif asosiy vositalarni modernizatsiyalash bilan bolik xarajatlar uchun tulik va etarli emas, deb hisoblaymiz.

«Rekonstruktsiya asosiy vositalarning ishshi potentsialini oshirish uchun zarur bo'lgan ma'lum bir xarajatlarni talab qiladi. Rekonstruktsiya maxsulot ishlab chiqarishni kupaytirish; tannarxni pasaytirish, xizmat muddatini o'zaytirish, maxsulot sifatini yaxshilash uchun amalga oshiriladi. Uskunani ishshi holatini saklab turish xarajatlari rekonstruktsiya emas, balkim modernizatsiyalash ishlariga taalluklidir»⁸. Bu ta'rif asosiy vositalarni rekonstruktsiya, modernizatsiyalash masalasiga D.Sultonova, N.Juraev va boshqa iqtisodshi olimlar tomonidan milliy va xalqaro standartlarni qullash yuzasidan tayyorlangan o'quv qullanmada berilgan.

Medvedev M.Yu. «Rekonstruktsiya va modernizatsiyalash xarajatlari asosiy vositaning boshlangish kiymatini oshiradi va buxgalteriya hisobida kapital kuyilma sifatida aks ettiriladi»⁹ deb ta'rif berishgan.

Kondrakov N.P., Kondrakov I.N. «Moderinizatsiya asosiy vositalarni funktsional me'yoriy kursatkishlarini (quvvati, ishlash sifati va boshqalar) yaxshilashni nazarda tutadi»¹⁰, deb hisoblaydi.

Yuqorida keltirib o'tilgan fikr va ta'riflarni urganib chiqib, kuyidagisha mulozani keltirib utish mumkin. Demak, asosiy vositalarni modernizatsiyalash natijasida uning foydali xizmat muddati o'zayadi, boshlangish kiymati oshadi, ishlab chiqarish kuvvati ochib, ishlash sifati yaxshilanadi.

Mustaqillik yillarida buxgalteriya hisobining rivojlanichiga nazar tashlasak, unda uslubiy va tashkiliy jixatdan katta o'zgarishlar ruy berganligini sezish mumkin. Bu davrda markazlashtirilgan rejali iqtisodiyot talablari asosida ishlashga moslashtirilgan buxgalteriya hisobi tizimidan bozor iqtisodiyoti talabiga javob beradigan hisob

⁷ O.Bobojonov, K.Jumaniyozov «Moliyaviy hisob», T. «Moliya», 2002 yil, 126 bet.

⁸ D.Sultonova, N.Juraev va boshqalar «Moliyaviy xisob», o'quv qo'llanma, T., 2002, 113 bet

⁹ Medvedev M.IU. Uchetnaya politika organizastii na 2010 god: prakticheskoe posobie. – M.: KNORUS, 2010. – 248 s..

¹⁰ N.K.Muravistkaya «Uchet osnovnix srestv», Ucheb posobie, M.:2003, 21 bet.

tizimiga utish jarayoni boshlandi.

Buxgalteriya hisobini bozor munosabatlari talablari asosida islox qilishni amalga oshirish maqsadida 1994 yilda Respublika Vazirlar Maxkamasining «Hisob va statistikani xalqaro standartlari asosida islox qilish dasturi» ishlab chiqildi va matbuotda e'lon qilindi.

O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida» gi Qonunining buxgalteriya hisobini rivojlantirishdagi roli bekiyosdir. Chunki ushbu qonuniy xujjatda birinchi marta respublikamizda buxgalteriya hisobining xukukiy asoslarini yaratish bilan birgalikda korxona xabarlar va mutaxassisliklariga buxgalteriya hisobining uslubiy va tashkiliy masalalarini eshishda etarli darajada xukuk hamda imtiyozlar berildi. Ushbu xukuk va imtiyozlardan foydalanish tartibi esa, O'zbekiston Respublikasini Moliya vazirligi tomonidan 1998 yil 26 iyulda 17-07/86-son bilan tasdiklangan (1-sonli BXMS) «Hisob siyosati va moliya hisobot» Buxgalteriya hisobining milliy standartida yoritib berilgan. Unda xar bir korxona mustaqil ravishda o'zining buxgalteriya hisobi tizimini, ya'ni hisob siyosatini ishlab chiqishi va e'lon qilishi mumkinligi belgilab kuyilgan.

Buxgalteriya hisobini bunday tarzda yulga kuyilishining moxiyati shu bilan tavsiflanadiki, unda davlat tomonidan urnatilgan buxgalteriya hisobini yuritishning umumiy koidalariga asoslangan holda xar bir korxonada ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatidan ko'zlangan maqsadga erishish uchun buxgalteriya hisobi bajarishi lozim bo'lgan vazifalardan kelib chiqib hisob tizimini mustaqil ravishda shakllantiradi.

Xo'jalik yurituvshi sub'ektlar asosiy vositalarni modernizatsiyalashda buxgalteriya hisobining uslubiy asoslarini tashkil qiluvshi qonuniy va me'yoriy xujjatlarni turtta darajada turlash mumkin. Eng oliy darajadagi qonun, bu O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyasi bo'lib, ushbu qonunda O'zbekiston Respublikasi fukarolari va mamlakat xududida turgun yashayotgan chet el fukarolari tadbirkorlik faoliyati bilan shugullanish maqsadida xo'jalik yurituvshi sub'ektlarni tashkil qilishlari va tadbirkorlik faoliyatlari bilan shugullanishlari kafolatlangan. Shuningdek, ular erkin faoliyat olib borishlari mumkin, ya'ni eksport va import operatsiyalarini ham amalga oshirish xukukiga egadir.

Barcha mulk shakllarining birdek rivojlanishini ta'minlash O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilab berilgan. Masalan, qonunlar majmuasi hisoblangan Fukarolik kodeksi, Solik kodeksi, Bojxona kodeksi kabi qonuniy xujjatlar asosiy vositalarni modernizatsiyalash xarajatlarini hisobga olishda aloxida ahamiyatga ega.

Buxgalteriya hisobini va uning tarkibiy qismi hisoblangan asosiy vositalarni modernizatsiyalash xarajatlari hisobining keyingi uchinchi darajasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jixozlashni tartibga solish, rivojlantirish, buxgalteriya hisobi va hisobotini takomillashtirishga karatilgan farmonlari hisoblanadi.

Buxgalteriya hisobining uslubiy asoslarini rivojlantirishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining qarorlari aloxida ahamiyatga ega. Yuqoridagi turtta darajadagi qonuniy va me'yoriy xujjatlar bilan bir katorida O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining me'yoriy xujjatlari ham buxgalteriya hisobining uslubiy asosi sifatida karaladi. Moliya Vazirligi tomonidan ishlab shiqilgan va Respublika Adliya Vazirligida ruyxatga olingan buxgalteriya hisobining milliy standartlari muxim ahamiyatga ega. Ushbu milliy standartlar buxgalteriya hisobining xalqaro standartlariga ansha yakinlashgan. Bugungi kunga kelib buxgalteriya hisobi milliy standartlarining 25 tasi ishlab chiqarilgan. Shuningdek, Moliya Vazirligi buxgalteriya hisobini tartibga soluvshi boshqa me'yoriy xujjatlari ham xo'jalik yurituvshi sub'ektlarda buxgalteriya hisobini tashkil qilishda aloxida ahamiyatga ega.

Asosiy vositalari asosiy ishlab chiqarishdagi asosiy vositalar, boshqa tarmoqlardagi asosiy ishlab chiqarish vositalar va noishlab chiqarishdagi asosiy vositalar.¹¹

Asosiy vositalari turlari buyisha quyidagisha guruxlanadi:

- 1.Yer;
- 2.Yerni obodonlashtirish;
- 3.Bino va inshootlar;
- 4.Mashina va uskunalar;

¹¹ Jo'raev N., Xolbekov R., Abduvaxidov F., Ilxomov I. Buxgalteriya hisobi, iktisodiy taxlil va audit. Darslik. -T.: 2007 y

5. Mebel va jihozlar;
6. Kompyuter uskunalari;
7. Transport vositalari va boshqalar.

Shuningdek, ijaraga olingan asosiy vositalarga sarflangan kapital ko'yilmalar ham asosiy vositalar tarkibida hisobga olinadi. Tijorat banklarda asosiy vositalar hisobga olishda ularning Boshlang'ich qiymati bo'yicha quyidagi schyotlarda aks ettiriladi.

16500	Asosiy vositalar
16501	- Yer
16505	- Tugallanmagan qurilishlar
16509	- Bankning imoratlari - Binolar va boshka imoratlar
16511	- Binolar va boshka imoratlarning yig'ilgan eskirish summasi (kontr-aktiv)
16515	- Ob'ektlarni ijaraga olish va uni takomillashtirish xuquqi
16519	- Ob'ektlarni ijaraga olish va uni takomillashtirish xuquqi buyisha yig'ilgan eskirish summasi (kontr-aktiv)
16529	- Transport vositalari
16531	- Transport vositalarining yig'ilgan eskirish summasi (kontr-aktiv)
16535	- Mebel, moslama va jixozlar
16539	- Mebel, moslama va jixozlarning yig'ilgan eskirish summasi (kontr-aktiv)
16541	- Tulov kartoshkalari bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish uskunalari
16543	- Tulov kartoshkalari bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish uskunalarining yig'ilgan eskirish summasi (kontr-aktiv)
16549	- Boshkalarga operatsion ijaraga berilgan asosiy vositalar
16551	- Boshkalarga operatsion ijaraga berilgan asosiy vositalarning yig'ilgan eskirish summasi (kontr-aktiv)
16561	Ombordagi asosiy vositalar
16563	Ombordagi asosiy vositalarning yig'ilgan eskirish summasi (kontr-aktiv)

Haq evaziga sotib olingan asosiy vositalarning Boshlang'ich qiymatiga quyidagi xarajatlar kiritiladi¹²:

- aktivlarni etkazib beruvshilarga hamda shartnoma bo'yicha qurilish-montaj ishlarini bajarganlik uchun pudratchilarga to'lanadigan summalar;
- asosiy vositalar ob'ektiga doir huquqni sotib olish (olish) munosabati bilan amalga oshirilgan ro'yxatdan o'tkazish yig'implari, davlat bojlari (bojxona bojlari, yig'implari va sh.k.) va boshqa shunga o'xshash to'lovlar;

¹² O'z R. Banklarida asosiy vositalarning buxgalteriya hisobi to'g'risidagi yo'riqnoma (yangi tahriri) 15.11.2010y.

- asosiy vositalar ob'ektlarini sotib olish (barpo qilish) munosabati bilan soliqlar va yig'imlar summolari (agar ular qoplanmasa);
- asosiy vositalar ob'ektlarini sotib olish (barpo qilish) bilan bog'liq axboriy va maslahat xizmatlari uchun to'langan summalar;
- asosiy vositalar ob'ektlarini etkazib berish xatarini sug'urtalash bo'yicha xarajatlar;
- asosiy vositalar ular orqali sotib olingan vositashilarga to'lanadigan haqlar;
- asosiy vositalarni o'rnatish, montaj qilish, sozlash va ishga tushirishga oid xarajatlar;
- aktivdan mo'ljal bo'yicha foydalanish uchun uni ishshi holatga keltirish bilan bevosita bog'liq boshqa xarajatlar.

Tijorat bnaklari chet el valyutasida sotib olingan asosiy vositalar balansda bojxona yuk deklaratsiyasini rasmiylashtirish sanasidagi Markaziy banki kursi bo'yicha milliy valyutada aks ettiriladi va chet el valyutasi kursining o'zgarishi munosabati bilan qayta baholanmaydi.

Muayyan sharoitlarda avtiv bilan bog'liq xarajatlarning umumiy summasini tegishli qismlarga bo'lish va har bir qismni alohida hisobga olish zarur. Bu ushbu ob'ektning tarkibiy qismlari har xil foydali xizmat muddatlariga ega bo'lgan holda amalga oshiriladi.

Barpo etilgan (qurilgan) asosiy vositalar dastlab balansda qurilishning haqiqiy tannarxi bo'yicha aks ettiriladi.

Inventarlash chog'ida aniqlangan ortiqsha asosiy vositalar bank balansida boshqa operatsion daromadlar sifatida aks ettiriladi.

Tekinga olingan asosiy vositalar dastlab balansda mazkur Yo'riqnomaning 8-bandida¹³ nazarda tutilgan xarajatlarni hisobga olgan holda buxgalteriya hisobiga qabul qilingan sanadagi haqqoniy qiymati bo'yicha tan olinadi. Tekinga olingan asosiy vositalarning qiymati qonun hujjatlariga muvofiq baholash faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'lgan mustaqil ekspertlar tomonidan yoki asosiy vositalarni qabul qilish-topshirish hujjatlaridagi ma'lumotlar asosida belgilanadi.

¹³ O'z R. Banklarida asosiy vositalarning buxgalteriya hisobi to'g'risidagi yo'riqnoma (yangi tahriri) 15.11.2010y.

Asosiy vositalarning tahliliy hisobi har bir ob'ekt, buyum bo'yicha oshiladigan tegishli shaxsiy hisobvaraqlarda yuritiladi.

2.bob. OATB “Asia Alliance Bank”da asosiy vositalar va ularning buxgalteriya hisobini tashkil qilish.

2.1. OATB “Asia Alliance Banki”da asosiy vositalarni sotib olishni hisobga olish.

OATB “Asia Alliance Bank”ning moliyaviy holati to’g’risidagi yig’ma hisoboti 2011 yil 31 dekabr holatiga ko’ra asosiy vositalar sof qiymati bo’yicha 13 714 691 ming so’m, 2010 yilda esa 12 101 2 ming so’mni tashkil qilgan. Boshqa aktivlar 2011 yil 1 149 215 ming so’mni, 2010 yil 328 394 ming so’mni bo’lgan. Mazkur bankning faoliyatini rivojlantirish maqsadida tegishli miqdorda asosiy vositalarini sotib olgan¹⁴.

OATB “Asia Alliance Bank”da asosiy vositalar, bino (inshootlar)ni qurilishi (rekonstruktsiyasi) bilan bog’liq bo’lgan loyiha-qidiruv ishlari, qurilish materiallari, mehnat, xarajatlar hamda asosiy vositalar sotib olish bilan bog’liq bo’lgan boshqa kapitallashtiriladigan xarajatlar qiymatini to’liq yoki qisman oldindan to’lash quyidagi buxgalteriya yozuvlari bilan rasmiylashtiriladi¹⁵:

Dt 19909 - "Tovar-moddiy qimmatliklar uchun to’langan mablag’lar";

Kt Bankning vakillik hisobvarag’i yoki mijoz (mol etkazib beruvshi)ning talab qilib olingunsha saqlanadigan depozit hisobvarag’i, agarda unga ushbu bank tomonidan xizmat ko’rsatilsa;

OATB “Asia Alliance Bank”da asosiy vositalar sotib olingan bino (inshoot) balansda quyidagi buxgalteriya o’tkazmasi bilan aks ettiriladi:

Dt 16509 - "Bankning imoratlari - Binolar va boshqa qurilgan imoratlar";

Kt 19909 - "Tovar-moddiy qimmatliklar uchun to’langan mablag’lar";

¹⁴ Bank axborotnomasi № 14(829), 2012 yil 4aprel.

¹⁵ O’z R. Banklarida asosiy vositalarning buxgalteriya hisobi to’g’risidagi yo’riqnoma (yangi tahriri) 15.11.2010y.

OATB “Asia Alliance Bank”da asosiy vositalar sotib olingan boshqa asosiy vositalar qiymatini balansda aks ettirilishi:

- Dt 165** - Asosiy vositalarning tegishli hisobvarag’i;
- Kt 19909 - "Tovar-moddiy qimmatliklar uchun to’langan mablag’lar”;

OATB “Asia Alliance Bank”da asosiy vositalarni omborga kirim qilish quyidagi o’tkazma bilan rasmiylashtiriladi:

- Dt 16561 - "Ombordagi asosiy vositalar”;
- Kt 19909 - "Tovar-moddiy qimmatliklar uchun to’langan mablag’lar”;

OATB “Asia Alliance Bank”da asosiy vositalar sotib olingan, rekonstruktsiya qilinishi talab qilinadigan binolar rekonstruktsiya tugallangunga qadar 16505-"Tugallanmagan qurilish" hisobvarag’ida alohida shaxsiy hisobvaraqlar bo’yicha hisobga olinadi. Bunda bino (inshootlar)ni qurilishi (rekonstruktsiyasi) bilan bog’liq bo’lgan loyiha-qidiruv ishlari, qurilish materiallari, mehnat, xarajatlar qiymati qabul qilish dalolatnomalariga asosan quyidagi buxgalteriya o’tkazmasi bilan hisobvaraqlarda aks ettiriladi:

- Dt 16505 - "Tugallanmagan qurilish”;
- Kt 19909 - "Tovar-moddiy qimmatliklar uchun to’langan mablag’lar”;

Agar keyingi xarajatlar xorijiy hamkor bilan tuzilgan kontraktlarga muvofiq chet el valyutasida amalga oshirilsa, xarajatlar hisobi 16505-"Tugallanmagan qurilish" hisobvarag’ida operatsiya sodir etilgan sanadagi O’zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo’yicha so’m ekvivalentida amalga oshiriladi.

OATB “Asia Alliance Bank”ning yil oxirida 16505-"Tugallanmagan qurilish" hisobvarag’idagi qoldiq tugallanmagan qurilish hajmiga muvofiq kelishi lozim hamda keyingi yilga o’tkaziladi;

OATB “Asia Alliance Bank”da binolar (inshootlar) foydalanishga tayyor holga kelganda ularning qiymati tegishli qabul qilish dalolatnomalari asosida

16509-"Bankning imoratlari - Binolar va boshqa qurilgan imoratlar" hisobvarag'iga kirim qilinadi. Agar qurilish yoki rekonstruktsiya xarajatlari smetasida Mebel va jihozlar sotib olinishi nazarda tutilgan bo'lsa, qabul qilish dalolatnomalarida ularning qiymati umumiy qiymatdan ajratib ko'rsatiladi va to'liq ro'yxati ilova qilinadi. Bunda quyidagi buxgalteriya yozuvlari rasmiylashtiriladi:

a) binolar qiymati summasiga:

Dt 16509 - "Bankning imoratlari - Binolar va boshqa qurilgan imoratlar";

Kt 16505 - "Tugallanmagan qurilish";

b) Mebel, moslama va jihozlar qiymati summasiga:

Dt 16535 - "Mebel, moslama va jihozlar";

Kt 16505 - "Tugallanmagan qurilish".

Agar OATB "Asia Alliance Bank" moddiy aktivlarni kirim qilgandan so'ng to'lovni amalga oshirsa, kirim hujjatlari asosida quyidagi buxgalteriya o'tkazmalari amalga oshiriladi:

- moddiy aktivlar kelib tushganda ularni balansda aks ettirish:

- asosiy vositalar kelib tushishi bilan darhol foydalanishga topshirilgan taqdirda:

Dt 165**- Asosiy vositalarning tegishli hisobvarag'i, yoki
16505 - "Tugallanmagan qurilish" (agar rekonstruktsiya qilinishi talab etiladigan binolar, tugallanmagan qurilishlar yoki qurilish uchun materiallar xarid qilinsa) (2);

Kt 29802 - "Tovar-moddiy qimmatliklar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lanadigan mablag'lar";
- asosiy vositalarni omborga kirim qilish:

Dt 16561 - "Ombordagi asosiy vositalar";

Kt 29802 - "Tovar-moddiy qimmatliklar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lanadigan mablag'lar";

-aktivlar qiymati to'langanda:

Dt 29802 - "Tovar-moddiy qimmatliklar va ko'rsatilgan
xizmatlar uchun to'lanadigan mablag'lar";
Kt Bankning vakillik hisobvarag'i yoki mijozning
hisobvarag'i;

- asosiy vositalarni ombordan foydalanishga topshirish:

Dt 165**- Asosiy vositalarning tegishli hisobvarag'i;

Kt 16561 - "Ombordagi asosiy vositalar".

Asosiy vositalar tekinga olinganda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi
rasmiylashtiriladi. Tekinga olingan asosiy vositalarning haqqoniy qiymatiga:

Dt 165**- Asosiy vositalarning tegishli hisobvarag'i, yoki

16561 - "Ombordagi asosiy vositalar" (agar omborga kirim
qilinsa);

Kt 45994 - "Boshqa foizsiz daromadlar".

Bunda paydo bo'ladigan bir yo'la xarajatlar joriy xarajatlarga hisobdan
chiqariladi.

OATB "Asia Alliance Bank" asosiy vositalar subsidiya ko'rinishida
olinganda quyidagi o'tkazma bajariladi:

Dt 165**- Asosiy vositalarning tegishli hisobvarag'i;

Kt 22896 - "Boshqa muddati uzaytirilgan daromadlar".

22896-hisobvaraqdagi muddati uzaytirilgan daromad keyinshalik OATB "Asia
Alliance Banki"da grantlarning buxgalteriya hisobi to'g'risidagi nizomga (O'zR
AV tomonidan 21.01.2004 yilda 1300-son bilan ro'yxatga olingan) muvofiq
hisobga olinadi.

OATB "Asia Alliance Banki" (amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq
byudjetga soliqlar to'lashdan ozod qilingan) soliq solishdan bo'shatilgan
mablag'lar hisobiga bank infratuzilmasini rivojlantirish doirasida asosiy vositalarni
xarid qilib, ularning qiymatini 30903-"Umumiy zaxira fondi" balans
hisobvarag'ining mazkur "Bank infratuzilmasini rivojlantirishga sarflangan
mablag'lar" shaxsiy hisobvarag'iga kiritgan bo'lsalar, quyidagi teskari o'tkazma
amalga oshiriladi:

- Dt 165**- Dt 30903 - "Umumiy zaxira fondi"
"Bank infratuzilmasini rivojlantirishga sarflangan
mablag'lar" sh/h;
- Kt 30903 - "Umumiy zaxira fondi";
"Bank infratuzilmasini rivojlantirishga sarflangan
mablag'lar" sh/h.

2.2. OATB “Asia Alliance Banki” garovga egalik huquqini qo'llash yo'li bilan olingan asosiy vositalarni hisobga olish

Agar garov OATB “Asia Alliance Banki” ta'minota ostida kredit olgan qarzdor o'z majburiyatlarini bajarmasa, bank garovga nisbatan o'z huquqini qo'llashi va uni sotishi yoki o'z mulkiga (egaligiga) olishi mumkin. Undirilgan garovga qo'yilgan mol-mulk dastlab sotish uchun mo'ljallangan undirilgan mol-mulk va boshqa ko'chmas mulkni hisobga olish to'g'risidagi me'yoriy hujjatlarga muvofiq aks ettiriladi.

OATB “Asia Alliance Bank” undirilgan mol-mulkni o'z asosiy vositalari sifatida ishlatishga qaror qilganda quyidagi buxgalteriya o'tkazmalari aks ettiriladi:

- Dt 165**- Asosiy vositalarning tegishli hisobvarag'i;
- Dt 16799 - "Bankning boshqa xususiy mulklari bo'yicha ko'rilishi
mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi (kontr-
aktiv)";
- Kt 16701 - "Kredit va lizing bo'yicha garov hisobidan undirilgan
mulk".

OATB “Asia Alliance Bank”ning asosiy vositalari sifatida foydalanishga topshirilgan undirilgan mol-mulk bo'yicha eskirishga muvofiq hisoblab yoziladi.

OATB “Asia Alliance Bank” keyingi xarajatlarni hisobga olish Kundalik xizmat ko'rsatish xarajatlari muntazam amalga oshiriladi va avtiylarni ishga yaroqli holatda saqlab turishga yo'naltirilgan. Bunday xarajatlar asosiy vositalar

ob'ektning balans qiymatiga kiritilmaydi, balki joriy xarajatlar sifatida aks ettiriladi. Kundalik xizmat ko'rsatish xarajatlari birinchi navbatda, bu: ishshi kuchi xarajatlari va sarflanadigan materiallar, ular shuningdek kichik qismlarga qilingan xarajatlarni ham o'z ichiga olishi mumkin.

Ba'zi asosiy vositalar ob'ektlarining qismlari muayyan vaqt oralig'idan keyin muttasil almashtirishni talab qilishi mumkin. Shuningdek, asosiy vositalarning ba'zi ob'ektlari tez-tez qaytariladigan almashtirishlar, masalan, binoning ichki devorlarini almashtirish zaruratini kamaytirish maqsadlarida yoki birgina almashtirish uchun xarid qilinishi mumkin. Bunday asosiy vositalar ob'ekti qismlarini almashtirish xarajatlari, agar ular asosiy vositalar ta'rifiga muvofiq bo'lsa, ular yuzaga kelgan vaqtda ushbu ob'ektning balans qiymatiga kiritiladi. Almashtirib bo'lingan qismlarning balans qiymati ushbu almashtirilgan qismlar bo'yicha eskirish alohida hisoblab yozilgan yoki hisoblab yozilmaganligidan qat'iy nazar hisobdan chiqariladi.

Agar bankning eski almashtirilgan qismning balans qiymatini aniqlashning amalda imkoni bo'lmasa, unda balans qiymati sifatida yangi almashtirilgan qismning uni xarid qilingan yoki qurilgan vaqtdagi qiymatidan foydalanish mumkin.

Asosiy vositalar ob'ektidan foydalanishni davom ettirish sharti bo'lib ushbu ob'ekt qismlari almashtirilganligidan qat'i nazar nosozliklar mavjud bo'lishi yuzasidan muntazam tekshiruvlar o'tkazish hisoblanashi mumkin. Har bir tekshiruvni amalga oshirishda uni o'tkazish xarajatlari, agar tan olish mezonlariga rioya etilsa, almashtirish qiymati sifatida ushbu asosiy vositalar ob'ektning balans qiymati tarkibida tan olinadi. Oldingi tekshirish xarajatlarning qolgan balans qiymati hisobdan chiqariladi. Bu ushbu ob'ektni xarid qilish yoki qurish operatsiyasi chog'ida oldingi tekshiruv qiymati identifikatsiyalanganligidan qat'iy nazar amalga oshiriladi. Zarurat tug'ilganda, ob'ektni xarid qilish yoki qurish paytida joriy tekshiruv komponentining qiymat ko'rsatkishi sifatida kelgusi shunga o'xshash tekshiruvning taxmin qilingan qiymatidan foydalanish mumkin.

Aktivlardan foydalanish samaradorligini oshiradigan yoki ularning foydali

xizmat muddatini uzaytiradigan asosiy vositalarga tegishli bo'lgan xarajatlar kapital xarajatlar sifatida hisobga olinadi va ularning balans qiymatini ko'paytiradi.

Kapital xarajatlarga takomillashtirish, almashtirish, kapital ta'mirlash bo'yicha xarajatlar kiradi.

Kapital ta'mirlash - aktivning xususiyati va sifatini sezilarli darajada yaxshilaydigan, samaradorligi va foydali xizmat muddatini oshiradigan ta'mirlash bo'lib, muntazam asosda amalga oshiriladi. Xarajatlarni kapitallashtirishda ularning summasi aktivning qiymatiga o'tkaziladi hamda, agarda zarur bo'lsa, zamonaviylashtirilgan aktivning foydali xizmat muddati qayta ko'rib chiqamiz.

Agar asosiy vositaga (uskunaga) yangi qismlar va detallarni qo'shish, yoki mavjud binoga qo'shimcha inshootlar qurish aktivning ajralmas qismi hisoblansa, xarajatlar aktivning balans qiymatiga kiritiladi. Agar qo'shish ajralgan va mustaqil holda amal qilsa yoki har xil xizmat muddatiga ega bo'lsa, u alohida inventar birlik sifatida hisobga olinadi.

2.3. OATB “Asia Alliance Bank” asosiy vositalarni qayta baholash hisobi

OATB “Asia Alliance Bank” tomonidan asosiy vositalarni qayta baholash asosiy vositalar ob'ektlarining Boshlang'ich qiymatini haqqoniy qiymat darajasiga moslash maqsadida ularni vaqti-vaqti bilan aniqlashtirish uchun amalga oshiriladi. Agar haqqoniy qiymat etarli darajadagi ishonsh bilan baholanishi mumkin bo'lsa, banklar bir sinf doirasidagi barcha asosiy vositalarni keyingi jamlangan amortizatsiyasi va qiymatining tushishidan yig'ilgan zararlar chegirilgan holda qayta baholash vaqtida ushbu ob'ektlarning haqqoniy qiymatini aks ettiruvchi qayta baholangan qiymat bo'yicha aks ettiradilar.

Asosiy vositalar alohida ob'ekti qiymatini qayta baholash o'tkazilganda asosiy vositalarning ushbu aktiv tegishli bo'lgan butun sinfi ham qayta baholanishi lozim. Asosiy vositalarning sinfi (guruhi) - bankda foydalanish turi va yo'li bo'yicha bir xil bo'lgan aktivlarning birlashuvi. Asosiy vositalarning bir sinfi tarkibidaga ob'ektlar bir vaqtning o'zida qayta baholanadi.

OATB “Asia Alliance Bank” mulkida, uning xo’jalik yuritishida yoki tezkor boshqaruvida bo’lgan barcha asosiy vositalar, shuningdek moliyaviy ijara bo’yicha uchinchi tomonda ijarada (lizingda) bo’lgan mol-mulk, joriy ijara bo’yicha uchinchi tomonga ijaraga berilgan mol-mulk, ishlab turgan va foydalanilmaydigan mol-mulk, konservatsiyada bo’lgan, hisobdan chiqarishga tayyorlangan, lekin belgilangan tartibda tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilmagan mol-mulk, shuningdek tugallanmagan qurilish ob’ektlari va o’rnatish uchun mo’ljallangan uskunalar qayta baholanishi lozim.

Er uchastkalari va tabiatdan foydalanish ob’ektlarining qiymati qayta baholanmaydi.

Qayta baholash OATB “Asia Alliance Bank” tomonidan mustaqil ravishda yoki qonun hujjatlariga muvofiq baholash faoliyati bilan shug’ullanish huquqiga ega bo’lgan mutaxassislar - ekspertlarni jalb etgan holda amalga oshiriladi. Asosiy vositalar ob’ektlarining haqqoniy qiymati odatda ularning bozor qiymati hisoblanadi. Agar haqqoniy qiymatni tasdiqlovchi, bozor ma’lumotlariga asoslangan axborotlar mavud bo’lmasa, OATB “Asia Alliance Bank” daromadga yoki almashtirishning amortizatsiyalanadigan qiymatiga asoslangan usulni qo’llab haqqoniy qiymatni taxminan baholashi mumkin.

Asosiy vositalar qiymatining tushishi aktivlar qiymatining tushishini hisobga olish bo’yicha MHXS talablariga muvofiq ko’rib chiqamiz.

OATB “Asia Alliance Bank” bugungi kunda qayta baholash uchun quyidagi usullar qo’llaniladi¹⁶:

1. Indeks usuli.
2. Bevosita qayta baholash usuli.

Indeks usuli. Indeks usuli bilan qayta baholashda qayta baholash sanasidagi asosiy vositalarning balans qiymati va ushbu aktivlarning jamlangan eskirishi muayyan indeksdan foydalangan holda qayta baholanadi. So’ngra aktivlarning qayta baholangan qiymati ularning balans qiymati va jamlangan eskirishi bilan taqqoslanadi va farqqa tegishli buxgalteriya yozuvlari amalga oshiriladi:

¹⁶ F.T. Abduvaxidov Tijorat banklarda buxgalteriya hisobi o’quv qo’llanma –TDIU- 2010 y

1) OATB “Asia Alliance Bank” agar aktivning qayta baholangan qiymati uning balans qiymatidan oshsa, bu ko’payish 30908-"Boshlang’ich qiymatiga nisbatan baholash qiymatining oshgan summasi" hisobvarag’ida quyidagi buxgalteriya yozuvi bilan aks ettiriladi:

Dt 165** - Asosiy vositalarning tegishli hisobvarag’i;

Kt 30908 - "Boshlang’ich qiymatiga nisbatan baholash
qiymatining oshgan summasi";

qayta baholashdan oldin va undan keyingi jamlangan eskirish summalari o’rtasidagi farqqa:

Dt 30908 - "Boshlang’ich qiymatiga nisbatan baholash
qiymatining oshgan summasi";

Kt 165** - Jamlangan eskirish - Asosiy vositalarning tegishli
hisobvarag’i;

qayta baholash natijasida asosiy vosita qiymatining ko’payish summasi xarajat sifatida tan olingan ushbu aktiv qiymatining oldingi arzonlashish summasini qoplashi darajasidagina daromad sifatida tan olinishi lozim.

OATB “Asia Alliance Bank” qayta baholash natijasida asosiy vositalarning haqqoniy qiymatining kamayishi xarajat sifatida tan olinadi. Ushbu summa bevosita 30908-"Boshlang’ich qiymatiga nisbatan baholash qiymatining oshgan summasi" hisobvarag’ining tegishli moddasidan, biroq xuddi o’sha asosiy vositaga nisbatan oldingi qo’shimcha baholash miqdori doirasida chegirib tashlanishi lozim. Bunda quyidagi buxgalteriya yozuvlari bajariladi:

a) qayta baholashdan oldin va undan keyingi jamlangan eskirish summalari o’rtasidagi farqqa:

Dt 165** - Jamlangan eskirish - Asosiy vositalarning tegishli
hisobvarag’i;

Kt 30908 - "Boshlang’ich qiymatiga nisbatan baholash
qiymatining oshgan summasi";

b) qayta baholash natijasida aniqlangan aktiv haqqoniy qiymatining

kamayishi summasiga:

Dt 30908 - "Boshlang'ich qiymatiga nisbatan baholash
qiymatining oshgan summasi"

Kt 165** - Asosiy vositalarning tegishli hisobvarag'i;

v) 30908-hisobvaraqa aks ettirilgan oldingi qayta baholash summasi etarli bo'lmagan taqdirda, arzonlashgan summa va oldingi qayta baholash summasi o'rtasidagi farq xarajat sifatida tan olinadi va 55995-"Boshqa foizsiz xarajatlari" hisobvarag'ida aks ettiriladi. Bunda quyidagi o'tkazma qayd etiladi:

Dt 55995 - "Boshqa foizsiz xarajatlari";

Kt 165** - Asosiy vositalarning tegishli hisobvarag'i.

OATB "Asia Alliance Bank" qayta baholashning indeks usulida asosiy vositalarning har bir guruhi bo'yicha ularning xarid qilingan davrlariga bog'liq holda har xil indeks qo'llaniladi.

OATB "Asia Alliance Bank" bevosita qayta baholash usulida. Asosiy vositalarning to'liq tiklanish qiymati alohida ob'ektlar qiymatini baholanayotgan aynan o'xshash bo'lgan yangi ob'ektlarning qayta baholash sanasida shakllangan, hujjatlar asosida tasdiqlangan bozor narxlari bo'yicha bevosita qayta hisoblash yo'li bilan aniqlanadi.

Bevosita qayta baholash usuli qo'llanilganda ob'ektlarning to'liq tiklanish qiymatini hujjatlar asosida tasdiqlash uchun bankning xohishiga ko'ra quyidagilardan foydalanilishi mumkin:

1) tayyorlovchi tashkilotlar va ularning rasmiy dilerlari, tovar-xom ashyo birjalari, ko'chmas mulk birjalaridan yozma shaklda olingan xuddi shunday aktivga doir narxlar to'g'risidagi ma'lumotlar;

2) qayta baholashni o'tkazish sanasiga va asosiy fondlarni xarid qilish sanasiga MB kurslarining nisbati sifatida belgilanadigan hisob-kitob koeffitsientini qo'llagan holda xarid qilish sanasiga EAVda asosiy fondlarning qiymati to'g'risidagi (tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lganida) ma'lumotlar;

3) tegishli davlat organlarida mavjud bo'lgan narxlar darajasi to'g'risidagi

ma'lumotlar;

4) qayta baholashni o'tkazish davrida ommaviy axborot vositalari va maxsus adabiyotlarda e'lon qilingan narxlar darajasi to'g'risidagi ma'lumotlar;

5) asosiy fondlar qiymati to'g'risida baholovchining hisoboti.

OATB "Asia Alliance Bank" asosiy vositalarni bevosita qayta baholash usuli bilan qayta baholashda tegishli asosiy vositalarning buxgalteriya hisobida hisobga olingan jamlangan eskirishi summasi qayta baholashdan keyingi tiklanish qiymatini qayta baholashdan oldingi qiymatiga nisbati tariqasida hisoblab chiqariladigan qayta hisoblash koeffitsienti bo'yicha indeksatsiyalanishi lozim.

Qayta baholashdan so'ng aktivlarning haqqoniy qiymati ularning Boshlang'ich (tiklanish) qiymati va jamlangan eskirishi bilan taqqoslanadi va farq summasiga mazkur Nizomning 32-bandiga muvofiq buxgalteriya o'tkazmalari amalga oshiriladi.

OATB "Asia Alliance Bank" 30908-"Boshlang'ich qiymatiga nisbatan baholash qiymatining oshgan summasi" hisobvarag'ida aks ettirilgan qayta baholashning ijobiy natijasi har oyda 31203-"Taqsimlanmagan foyda (aktiv-passiv)" hisobvarag'iga hisobdan chiqariladi. Bunda qo'yida buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Dt 30908 - "Boshlang'ich qiymatiga nisbatan baholash
qiymatining oshgan summasi";

Kt 31203 - "Taqsimlanmagan foyda (aktiv-passiv)".

Tegishli aktivni hisobdan chiqarishda 30908-hisobvaraqdagi qayta baholash natijasi to'lig'icha 31203-hisobvaraqa o'tkaziladi.

Asosiy vositalarni **Indeks usulida** qayta baholash va uning natijalarini tegishli hisobvaraqlarga aks ettirish bo'yicha misolmizda ko'rib chiqamiz.

Asosiy vositalarni qayta baholashda indeks usulini qo'llash uchun har yili navbatdagi qayta baholash bo'yicha tegishli indekslar ishlab chiqamiz va ommaviy axborot vositalarida rasman chop etiladi.

Demak 2009 yil 25 mayda bank 480.000 so'm qiymatga ega kompyuterni sotib oladi va uni 16535-hisobvaraqa kirim qiladi. Eskirish me'yori yillik 20%.

2010 yil 1 yanvarda jamlangan eskirish summasi = 56.000 so'm;

$$\frac{480.000 \text{ so'm} \cdot}{100\% \times 12} \times 20\% = 8.000 \text{ so'm} \times 7 \text{ oy} = 56.000 \text{ so'm}$$

2011 yil 1 yanvar holatiga ko'ra jamlangan eskirish summasi (8.000 x 19 oy) 152.000 so'mni tashkil qiladi.

2011 yil 1 yanvarda kompyuterning Boshlang'ich qiymati va jamlangan eskirishi ommaviy axborot vositalarida chop etilgan koeffitsientga (koeffitsient 4 ga teng deb taxmin qilamiz) ko'paytiriladi.

$480.000 \times 4 = 1.920.000 \text{ so'm}$ - qayta baholashdan keyingi qiymati;

$152.000 \times 4 = 608.000 \text{ so'm}$ - qayta baholashdan keyingi jamlangan eskirish summasi.

Olingan natijalar kompyuterning Boshlang'ich qiymati va jamlangan eskirishi bilan taqqoslanadi hamda farq summasiga buxgalteriya o'tkazmalari amalga oshiriladi:

$$1.920.000 \text{ so'm} - 480.000 \text{ so'm} = 1.440.000 \text{ so'm}.$$

$$608.000 \text{ so'm} - 152.000 \text{ so'm} = 456.000 \text{ so'm}.$$

1) Dt 16535 - "Mebel, moslama va jihozlar";

1.440.000 so'm;

Kt 30908 - "Boshlang'ich qiymatiga nisbatan baholash qiymatining oshgan summasi";

2) Dt 30908 - "Boshlang'ich qiymatiga nisbatan baholash qiymatining oshgan summasi";

456.000 so'm;

Kt 16539 - "Jamlangan eskirish - Mebel, moslama va jihozlar (kontr-aktiv)".

Buxgalteriya o'tkazmalari amalga oshirilgandan so'ng hisobvaraqlar qoldig'i:

$$16535 = 1.920.000 \text{ so'm}, 16539 = 608.000 \text{ so'm} \text{ va } 30908 = 984.000 \text{ so'm}.$$

30908 - "Boshlang'ich qiymatiga nisbatan baholash qiymatining oshgan summasi" hisobvarag'iga kiritilgan qayta baholashning musbat natijasi har oyda 31203 - "Taqsimlanmagan foyda (aktiv-passiv)" hisobvarag'iga bevosita hisobdan

chiqariladi. Ushbu holda qayta baholashning har oyda hisobdan chiqariladigan musbat natijasi summasi tegishli aktiv tiklash qiymatining eskirish summasi bilan Boshlang'ich qiymatining eskirish summasi o'rtasidagi farqqa teng (ya'ni 1.920.000 so'mdan kompyuterning oylik eskirishi 32.000 so'mni va kompyuter Boshlang'ich qiymatining eskirishi 8.000 so'mni tashkil qiladi. Farq = 24.000 so'm). Bunda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Dt 30908 - "Boshlang'ich qiymatiga nisbatan baholash qiymatining oshgan summasi";

24.000 so'm;

Kt 31203 - "Taqsimlanmagan foyda (aktiv-passiv)".

2. Bevosita qayta baholash usuli

a) chet el valyutasiga sotib olingan asosiy vositalar bo'yicha.

Chet el valyutasiga sotib olingan asosiy vositalarni qayta baholash uchun qo'llaniladigan koeffitsientlar quyidagi tarzda aniqlanadi:

Shartli misolimizda, bank 2008 yil 1 avgustda qiymati 500 AQSH dollariga teng bo'lgan kompyuterni sotib oldi va 2008 yil 1 avgustdagi Markaziy bank kursi (1\$ = 150 so'm) bo'yicha 75.000 so'mga balansga kirim qildi. 2011 yil 1 yanvardagi Markaziy bank kursi 1 AQSH dollariga nisbatan 350 so'mni tashkil qiladi.

Chet el valyutasiga sotib olingan asosiy vositalarni qayta baholash uchun qo'llaniladigan koeffitsient 2011 yil 1 yanvardagi (qayta baholash sanasidagi) va asosiy vositalar xarid qilingan sanadagi Markaziy bank kurslarining nisbati tariqasida aniqlanadi (koeffitsient 2,3 ga teng, ya'ni $350/150 = 2,3$). Kompyuter 2,3 koeffitsient bo'yicha qayta baholangandan so'ng uning tiklash qiymati $75.000 \times 2,3 = 172.500$ so'mga, jamlangan eskirishi (2011 yil 1 yanvarda jamlangan eskirishi 35.000 so'm) $35.000 \times 2,3 = 80.500$ so'mga teng.

b) milliy valyutada sotib olingan asosiy vositalar bo'yicha.

Indeks usuli uchun keltirilgan misoldan foydalanamiz. Bunda 2011 yil 1 yanvar holatiga ko'ra jamlangan eskirish summasi 152.000 so'mni (8.000×19 oy) tashkil qiladi.

Asosiy vositalarni bevosita qayta hisoblash usuli bilan qayta baholashda tegishli asosiy vositalarning buxgalteriya hisobida hisobga olingan jamlangan eskirishi summasi qayta baholashdan keyingi tiklash qiymatining qayta baholashdan oldingi qiymatga nisbati tariqasida hisoblab chiqariladigan qayta baholash koeffitsienti bo'yicha indekslanadi.

Qayta baholangandan keyin Boshlang'ich qiymat aktivning baholangan haqqoniy qiymati bilan taqqoslanadi. Taxmin qilamiz, ushbu kompyuterning bozor qiymati 800.000 so'm. Ushbu holda jamlangan eskirishning qayta hisoblash koeffitsienti 1,66 ga teng bo'ladi:

$$800.000 \text{ so'm} / 480.000 \text{ so'm} = 1,66$$

1,66 koeffitsient bo'yicha qayta hisoblangandan keyin jamlangan eskirish - 252.320 so'm (ya'ni $152.000 \times 1,66$).

Qayta baholash natijasi bo'yicha buxgalteriya o'tkazmalari:

1) Dt 16535 - "Mebel, moslama va jihozlar";

320.000 so'm;

Kt 30908 - "Boshlang'ich qiymatiga nisbatan baholash qiymatining oshgan summasi";

2) Dt 30908 - "Boshlang'ich qiymatiga nisbatan baholash qiymatining oshgan summasi";

100.320 so'm;

Kt 16539 - "Jamlangan eskirish - Mebel, moslama va jihozlar (kontr-aktiv)".

Buxgalteriya o'tkazmalari amalga oshirilgandan so'ng hisobvaraqlar qoldig'i: $16535 = 800.000 \text{ so'm}$, $16539 = 252.320 \text{ so'm}$ va $30908 = 219.680 \text{ so'm}$.

OATB "Asia Alliance Bank" ombordagi asosiy vositalarning qayta baholash natijalari quyidagi buxgalteriya o'tkazmalari bilan hisobga olinadi:

1) tegishli aktivlar bo'yicha qayta baholashning ijobiy natijasi:

Dt 16561 - "Ombordagi asosiy vositalar" - tegishli aktiv;

Kt 30908 - "Boshlang'ich qiymatiga nisbatan baholash qiymatining oshgan summasi";

2) qayta baholash natijasida asosiy vositalar qiymatining kamayish summasi:

- Dt 30908 - "Boshlang'ich qiymatiga nisbatan baholash
qiymatining oshgan summasi"
- Dt 55995 - "Boshqa foizsiz xarajatlar";
- Kt 16561 - "Ombordagi asosiy vositalar" - tegishli aktiv.

2.4. OATB “Asia Alliance Banki” asosiy vositalarning amortizatsiyasini hisoblash

OATB “Asia Alliance Bank” erdan tashqari barcha asosiy vositalar cheklangan foydalanish muddatiga ega. Foydalanish muddatining cheklanganligi sababli ushbu asosiy vositalarning amortizatsiyalanadigan qiymati butun foydali xizmat muddati mobaynida amortizatsiya ajratmalari ko'rinishida bank xarajatlariga taqsimlanishi lozim. Asosiy vositalarning xizmat muddati ikki asosiy sabab: jismonan eskirish (aktivlarni ishlatish, ulardan foydalanish natijasi, shuningdek tabiiy omillar ta'siri); ma'nan eskirishi (aktivlar zamon talablariga javob bermaydi) bilan cheklanadi. Asosiy vositalar bo'yicha amortizatsiya ajratmalari ular foydalanishga topshirilgan oydan keyingi oydan boshlab hisoblanadi hamda mazkur Yo'riqnomaning VIII bo'limiga muvofiq hisobdan chiqarilish vaqtiga qadar davom ettiriladi. Amortizatsiya xarajatlari aktivning foydali xizmat muddati mobaynida muttasil har oyda aks ettiriladi.

Aktivning foydali xizmat muddati bank uchun ushbu aktivdan olinishi taxmin qilinayotgan foydani baholash yo'li bilan belgilanadi. Foydali xizmat muddati uning ishida aktiv ishlatiladigan yillarda, bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar hajmlarida, yo'l yurishda (agar gap avtomashinalar hakida borsa) o'lchanishi mumkin. OATB “Asia Alliance Bank” bo'yicha aktivning foydali xizmat muddatini belgilashda quyidagi barcha omillar hisobga olinishi lozim:

- 1) bank tomonidan aktivni ishlatishning kutilayotgan hajmi, aktivning taxmin qilinayotgan quvvati yoki fizik unumdorligi bo'yicha baholanadi;
- 2) taxmin qilinayotgan jismonan eskirishi;
- 3) aktivning ma'nan eskirishi ushbu tur aktivning ishlab chiqarish

jarayonining o'zgarishlari yoki takomillashuvi natijasida ma'lum bo'ladi;

4) aktivdan foydalanishdagi yuridik yoki aynan shunga o'xshash cheklovlar, bu foydalanish muddatini cheklash yoki ijara.

OATB "Asia Alliance Bank" asosiy vositalarning foydali xizmat muddati amalga oshirilgan aktivning foydali xizmat muddatini uzaytiruvchi keyingi xarajatlarni hisobga olgan holda, shuningdek ushbu muddatni qisqartiruvchi texnologik o'zgartirishlarni hisobga olgan holda bank tomonidan qayta ko'rib chiqilishi mumkin. Banklar asosiy vositalarning tugatish qiymati va foydali xizmat muddatini hech bo'lmaganda har yilning oxirida qayta ko'rib chiqadilar.

Foydali xizmat muddati asosiy vosita holatini dastlab hisoblangan normativlardan yuqori darajada yaxshilaydigan keyingi xarajatlar natijasida uzaytirilishi mumkin (kapital ta'mirlash, takomillashtirish va shu kabilarda). Va aksinsha texnologik o'zgarishlar yoki xizmatlar bozoridagi o'zgarishlar uning foydali xizmat muddatini kamayishiga olib kelishi mumkin. Ushbu hollarda foydali xizmat muddati va, tegishlicha, amortizatsiya me'yori hisob siyosati va buxgalteriya baholaridagi o'zgarishlar bo'yicha MHXS talablariga muvofiq joriy va kelgusi davrlar uchun tuzatiladi¹⁷.

Aktivning tugatish qiymati ahamiyatli bo'lganda, u xarid sanasida yoki aktivlarning har qanday avvalgi baholanish sanasida belgilanadi. Tugatish qiymati aktivning foydali xizmat muddati oxirida tugatish bo'yicha kutilayotgan xarajatlar summasiga kamaytirilishi lozim.

Quyidagi omillar amortizatsiya (eskirish) summasini aniqlashda o'z ta'sirini ko'rsatadi:

- Boshlang'ich qiymat;
- tugatish qiymati;
- taxmin qilinayotgan foydali xizmat muddati;
- amortizatsiya (eskirish)ni hisoblash usuli.

OATB "Asia Alliance Bank" amortizatsiya hisoblashda quyidagi usullarni qo'llash yo'li bilan hisoblanadi:

¹⁷ Kursov V.N. Buxgalterskiy uchets v komercheskom banke. -Moskva.: 2008, str. 209

- teng maromli (to'g'ri shiziqli) hisoblash usuli;
- bajarilgan ishlar hajmiga mutanosib ravishda eskirishni hisoblash usuli;
- jadallashtirilgan usullar:
- *yillar summasi usuli (kumulyativ usul);
- *kamayib boruvshi qoldiq usuli.

OATB "Asia Alliance Bank" foydalanilaligan amortizatsiya usuli bank aktivdan olinadigan iqtisodiy foydani iste'mol qiladigan sxemani aks ettirishi lozim. Turli xildagi aktivlarga amortizatsiya hisoblashning turli usullarini qo'llash mumkin. Bunda asosiy vositalarning bir turiga faqat bitta usulni qo'llash foydalanadi.

Eskirish hisoblashning tanlangan usuli OATB "Asia Alliance Bank"ning hisob siyosatida belgilanishi va bir hisobot davridan boshqachasiga izchillik bilan qo'llanishi va yil davomida o'zgartirilimasligi kerak. Amortizatsiya usulini tanlashda foydalanilayotgan ob'ektning vazifasi va mazkur usulni ushbu ob'ektga nisbatan qo'llashning maqsadga muvofiqligidan kelib chiqish kerak.

Teng maromli (to'g'ri shiziqli) hisoblash usuli o'zgarmas eskirish (amortizatsiya) summasini teng maromda, asosiy vositalarning foydali xizmat muddati mobaynida ularning qiymatidan kelib chiqqan holda teng ulushlarda hisoblashga asoslanadi. Bunda quyidagi formulalarni ishlatish maqsadga muvofiq¹⁸:

$$\begin{array}{|c|c|c|c|c|c|c|c|} \hline \text{YES} = & \frac{\text{AQ}}{100} & \times \text{AM}; & \text{AXM} = & \frac{1}{\text{AM}} & \times 100\%; & \text{OES} = & \frac{\text{AQ}}{12 \times 100} \times \text{AM}, \\ \hline \end{array}$$

bu erda:

YES - yillik eskirish summasi;

AQ - aktivning amortizatsiyalanadigan qiymati;

AXM - aktivning xizmat muddati;

AM - amortizatsiya me'yori;

OES - oylik eshkirish summasi.

¹⁸ O'z R. Banklarida asosiy vositalarning buxgalteriya hisobi to'g'risidagi yo'riqnoma (yangi tahriri) 15.11.2010y.

**OATB “Asia Alliance Bank” teng maromli (to’g’ri shiziqli) hisoblash usuli
bo’yicha hisob-kitob**

Avtomobilning Boshlang’ich qiymati 4.000.000 so’m; uning besh yillik foydalanish muddati oxiridagi tugatish qiymati 100.000 so’m. Ushbu holda har yillik amortizatsiya amortizatsiyalanadigan qiymatning 20%ini tashkil qiladi. Bu hisob-kitoblar quyidagi tarzda bajariladi: 4.000.000 so’m. - 100.000 so’m. YES = 5 = 780.000 so’m.				
Besh yil mobaynida amortizatsiya hisoblanishini quyidagi tarzda aks ettirish mumkin (so’mda):				
	ABQ	YES	Jamlangan eskirish	Qoldiq qiymati
Xarid qilish sanasi	4.000.000	-	-	4.000.000
1-yilning oxiri	4.000.000	780.000	780.000	3.220.000
2-yilning oxiri	4.000.000	780.000	1.560.000	2.440.000
3-yilning oxiri	4.000.000	780.000	2.340.000	1.660.000
4-yilning oxiri	4.000.000	780.000	3.120.000	880.000
5-yilning oxiri	4.000.000	780.000	3.900.000	100.000

Mazkur usul amortizatsiya faqat foydali xizmat muddatiga bog’liq degan taxminga asoslangan.

Bajarilgan ishlar hajmiga mutanosib ravishda eskirishni hisoblash usuli amortizatsiya summasini aktivning taxmin qilinayotgan ishlatilishi yoki taxmin qilinayotgan unumdorligidan kelib chiqqan holda hisoblashga asoslangan. Ushbu usul har bir muayyan yildagi asosiy vositaning mahsulotlarini hisobga olishga asoslangan. Ushbu usul bo’yicha har yillik eskirish miqdorini hisoblash uchun butun foydali xizmat muddatidagi umumiy baholangan mahsulotlar yig’indisini va mazkur muayyan yildagi mahsulotlarni aniqlash lozim.

Mahsulot sifatida ishlar (mahsulotlar) hajmi, ishlangan soatlar soni olinishi mumkin. Bunda amortizatsiya quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$SA = \frac{AQ}{SHBS} \times DBS, \text{ bu erda:}$$

SA - amortizatsiya summasi;

AQ - aktivning amortizatsiyalanadigan qiymati;

DBS - mazkur davrdagi birliklar soni;

SHBS - aktivning butun foydali xizmat muddati uchun hisoblab shiqilgan (shamalangan) birliklar soni.

2-jadval

OATB “Asia Alliance Bank” bajarilgan ishlar hajmiga mutanosib ravishda eskirishni hisoblash usuli bo'yicha eskirish summasi hisob-kitobi

Avtomobilning Boshlang'ich qiymati 4.000.000 so'm; u 200.000 km yo'l yurichig mo'ljallangan. Tugatish qiymati - 100.000 so'm. Bir km yo'l yurishga to'g'ri keladigan amortizatsiya ajratmasi quyidagi tarzda aniqlanadi:

$$YES = \frac{4.000.000 \text{ so'm.} - 100.000 \text{ so'm.}}{200.000} = 19,5 \text{ so'm/km.}$$

Agar foydalanish chog'ida avtomobil birinchi yilda 40.000 km, ikkinshi yilda 50.000 km, uchinchi yil 40.000 km, to'rtinchi yil 50.000 km va beshinchi yil 20.000 km yo'l yurgan bo'lsa, amortizatsiya ajratmalari jadvali quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi (so'mda):

	ABQ	Km	YES	Jamlangan eskirish	Qoldirilgan qiymat
Xarid qilish sanasi	4.000.000	-	-	-	4.000.000
1-yilning oxiri	4.000.000	40.000	780.000	780.000	3.220.000
2-yilning oxiri	4.000.000	50.000	975.000	1.755.000	2.245.000
3-yilning oxiri	4.000.000	40.000	780.000	2.535.000	1.465.000
4-yilning oxiri	4.000.000	50.000	975.000	3.510.000	490.000
5-yilning oxiri	4.000.000	20.000	390.000	3.900.000	100.000

Bajarilgan ishlar hajmiga mutanosib ravishda eskirishni hisoblash usuli amortizatsiya (eskirish) faqat foydalanish natijasi bo'lib hisoblanichigagina asoslanadi va davrning bir qismi uning hisoblanish jarayonida biror-bir rol

o'ynamaydi.

OATB "Asia Alliance Bank"ning aktivlardan intensiv foydalanilganda, shuningdek ilmiy-texnikaviy jarayonning katta ta'sirida aktivlar eskirishini jadallashtirilgan amortizatsiya usullari asosida hisoblash maqsadga muvofiqdir.

Yillar summasi usuli hisob-kitob koeffitsientida maxraj bo'lib hisoblangan ob'ektning xizmat muddati yillari summasi bilan belgilanadi. Ushbu koeffitsientning suratida ob'ektning xizmat muddati oxiriga qadar qoladigan yillar soni (teskari tartibda) bo'ladi.

3-jadval

**OATB "Asia Alliance Bank" tomonidan yillar summasi usuli bo'yicha
eskirish summasi hisob-kitobi**

Avtomobilning Boshlang'ich qiymati 4.000.000 so'm; uning besh yillik foydalanish muddati oxiridagi tugatish qiymati 100.000 so'm. Avtomobilning taxmin qilinayotgan foydali xizmat muddati 5 yil. Sonlar-foydalanish yillari summasi 15 ni tashkil qiladi (kumulyativ son): $1 + 2 + 3 + 4 + 5 = 15$ har bir kasrni 3.900.000 so'mga teng (4.000.000 - 100.000) amortizatsiyalanadigan qiymatga ko'paytirish yo'li bilan yillik amortizatsiya summasi aniqlanadi. 5/15, 4/15, 3/15, 2/15, 1/15.				
	ABQ	YES	Jamlangan eskirish	Qoldiq qiymati
Xarid qilish sanasi	4.000.000	-	-	4.000.000
1-yilning oxiri	4.000.000	$(5/15 \times 3.900.000) = 1.300.000$	1.300.000	2.700.000
2-yilning oxiri	4.000.000	$(4/15 \times 3.900.000) = 1.040.000$	2.340.000	1.660.000
3-yilning oxiri	4.000.000	$(3/15 \times 3.900.000) = 780.000$	3.120.000	880.000
4-yilning oxiri	4.000.000	$(2/15 \times 3.900.000) = 520.000$	3.640.000	360.000
5-yilning oxiri	4.000.000	$(1/15 \times 3.900.000) = 260.000$	3.900.000	100.000

OATB "Asia Alliance Bank" kamayib boruvshi qoldiq usuli hisoblanadigan

amortizatsiya summasini aktivning foydali xizmat muddati mobaynida kamayishini anglatadi. Ushbu usul yillar summasi usulidagi printsipga asoslangan. Ushbu usulda teng maromli (to'g'ri shiziqli) usulida foydalaniladigan me'yorga qaraganda ikki baravar oshirilgan amortizatsiya me'yori olinadi.

4-jadval

**Kamayib boruvshi qoldiq usuli bo'yicha eskirish summasi
hisob-kitobi**

Avtomobilning Boshlang'ich qiymati 4.000.000 so'm. Avtomobilning taxmin qilinayotgan foydali xizmat muddati 5 yil. Tegishli to'g'ri shiziqli usulda har bir yildagi amortizatsiya me'yori 20%ni ($100\% / 5$ yil) tashkil qiladi. Kamayib boruvshi qoldiq usulida ikkilangan hisobdan chiqarish me'yori bilan amortizatsiya me'yori 40%ga ($2 \times 20\%$) teng bo'ladi. Ushbu 40% qat'iy stavka har bir yilning oxiridagi qoldiq qiymatga ko'paytiriladi. Taxmin qilinayotgan tugatish qiymati amortizatsiya hisob-kitobida hisobga olinmaydi, bundan foydali xizmat muddatining oxirgi yili mustasno. Oxirgi yilda amortizatsiya summasi buyumning qoldiq qiymatini tugatish qiymatigacha kamaytirish uchun zarur bo'lgan miqdor bilan cheklanadi.				
	ABQ	YES	Jamlangan eskirish	Qoldiq qiymati
Xarid qilish sanasi	4.000.000	-	-	4.000.000
1-yilning oxiri	4.000.000	$(40\% \times 4.000.000) = 1.600.000$	1.600.000	2.400.000
2-yilning oxiri	4.000.000	$(40\% \times 2.400.000) = 960.000$	2.560.000	1.440.000
3-yilning oxiri	4.000.000	$(40\% \times 1.440.000) = 576.000$	3.136.000	864.000
4-yilning oxiri	4.000.000	$(40\% \times 864.000) = 345.600$	3.481.600	518.400
5-yilning oxiri	4.000.000	418.400	3.900.000	100.000

Asosiy vositalarga nisbatan qo'llaniladigan amortizatsiya usuli vaqti-vaqti bilan qayta ko'rib chiqilishi lozim, agarda ushbu aktivlardan iqtisodiy foyda olishning taxmin qilinayotgan chizmasida sezilarli o'zgarishlar bo'lgan holda, usul ushbu o'zgarishlarni aks ettirish uchun o'zgartirilishi va buxgalteriya baholarida o'zgarishlar sifatida aks ettirilishi lozim, joriy va kelgusi davrlar uchun

amortizatsiyaga esa hisob siyosati va buxgalteriya baholaridagi o'zgarishlar bo'yicha MHXS talablariga muvofiq tuzatish kiritilishi lozim.

OATB "Asia Alliance Bank" davrdagi amortizatsiya quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi bilan bank xarajatlariga kiritiladi:

Dt 566** - Asosiy vositalar tegishli guruhlarining eskirishi
xarajatlari;

Kt 165** - Jamlangan eskirish - Asosiy vositalarning tegishli
hisobvarag'i

3.bob. OATB “Asia Alliance Bank”da asosiy vositalar harakati, inventarlash va hisobotni tayyorlash hamda takomillashtirish

3.1. OATB “Asia Alliance Bank”asosiy vositalarning bosh bank va uning fiallari o’rtasidagi harakatini hisobga olish

OATB “Asia Alliance Bank”asosiy vositalar bosh bankdan filialga berilganda quyidagi buxgalteriya o’tkazmalari bajariladi¹⁹:

1) bosh bankda:

- a) Dt 16104 - "Bosh bank/filiallardan olinadigan mablag’lar - Tovar-moddiy qimmatliklar" - "qayta baholash natijasi" ayirilgan holda qoldiq qiymati;
- Dt 30908 - "Boshlang’ich qiymatiga nisbatan baholash qiymatining oshgan summasi" - qayta baholash natijasi;
- Dt 165** - Jamlangan eskirish - Asosiy vositalarning tegishli hisobvarag’i;
- Kt 165** - Asosiy vositalarning tegishli hisobvarag’i - yalpi balans qiymati;

b) agar asosiy vositalar omborda berilsa:

- Dt 16104 - "Bosh bank/filiallardan olinadigan mablag’lar - Tovar-moddiy qimmatliklar" - "qayta baholash natijasi" ayirilgan holda qoldiq qiymati;
- Dt 30908 - "Boshlang’ich qiymatiga nisbatan baholash qiymatining oshgan summasi" - qayta baholash natijasi;
- Dt 165** - Jamlangan eskirish - Asosiy vositalarning tegishli hisobvarag’i;

¹⁹ O’z R. Tijorat banklarida buxgalteriya hisobi schyotlar rejasi-T-2010y

Kt 16561 - "Ombordagi asosiy vositalar" - yalpi balans
qiymati;

2) filialda (asosiy vositalar olinganda):

- a) Dt 165** - Asosiy vositalarning tegishli hisobvarag'i - yalpi balans qiymati;
Kt 165** - Jamlangan eskirish - Asosiy vositalarning tegishli hisobvarag'i;
Dt 30908 - "Boshlang'ich qiymatiga nisbatan baholash qiymatining oshgan summasi" - qayta baholash natijasi;
Kt 22205 - "Bosh bank/filiallarga to'lanadigan mablag'lar - Tovar-moddiy qimmatliklar" - "qayta baholash natijasi" ayirilgan holda qoldiq qiymati;
b) agar asosiy vositalar omborga kirim qilinsa:

Dt 16561 - "Ombordagi asosiy vositalar" - yalpi balans qiymati;
Kt 165**- Jamlangan eskirish - Asosiy vositalarning tegishli hisobvarag'i;
Kt 30908 - "Boshlang'ich qiymatiga nisbatan baholash qiymatining oshgan summasi" - qayta baholash natijasi;
Kt 22205 - "Bosh bank/filiallarga to'lanadigan mablag'lar - Tovar-moddiy qimmatliklar" - "qayta baholash natijasi" ayirilgan holda qoldiq qiymati.

OATB "Asia Alliance Bank" asosiy vositalarni filialdan bosh bankka berilishi, shuningdek asosiy vositalarning filiallar o'rtasida o'zaro berilishi mazkur Yo'riqnomaning 60-bandiga muvofiq amalga oshiriladi.

Yagona balans hisobotida jamlashda o'zaro hisobvaraqlar (16104 va 22205) chiqarib tashlanadi va balans hisobotida aks ettirilmaydi.

1. Asosiy vositalarni bosh bankdan filialga berish:

Misolimizda, asosiy vositaning balans qiymati - 100.000 so'm, hisoblangan eskirishi summasi - 20.000 so'm va 30908-hisobvaraqdagi qoldiq - 10.000 so'm.

Dt 16104 - "Bosh bank/filiallardan olinadigan mablag'lar - Tovar-moddiy qimmatliklar" 70.000 so'm;
Dt 165** - Asosiy vositalar teishli guruhlarining jamlangan eskirishi 20.000 so'm;

Dt 30908 -	"Boshlang'ich qiymatiga nisbatan baholash qiymatining oshgan summasi"	10.000 so'm;
Kt 165** -	Asosiy vositalarning tegishli hisobvarag'i	100.000 so'm

2. Filialda:

asosiy vositalar olinganda:

Dt 165** -	Asosiy vositalarning tegishli hisobvarag'i	100.000 so'm;
Kt 165** -	Jamlangan eskirish - Asosiy vositalarning tegishli hisobvarag'i	20.000 so'm;
Kt 22205 -	"Bosh bank/filiallarga to'lanadigan mablag'lar - Tovar-moddiy qimmatliklar"	70.000 so'm;
Kt 30908 -	"Boshlang'ich qiymatiga nisbatan baholash qiymatining oshgan summasi"	10.000 so'm.

3. Asosiy vositalarni bir filialdan boshqasiga berish quyidagi buxgalteriya o'tkazmalari bilan amalga oshiriladi:

asosiy vositalarni "A" filialdan "B" filialga berish:

Masalan, asosiy vositaning balans qiymati - 80.000 so'm, hisoblangan eskirishi summasi - 10.000 so'm, 30908-hisobvaraqdagi qoldiq - 10.000 so'm.

1) "A" filialda:

Dt 16104 -	"Bosh bank/filiallardan olinadigan mablag'lar - Tovar-moddiy qimmatliklar"	60.000 so'm;
Dt 165** -	Jamlangan eskirish - Asosiy vositalarning tegishli hisobvarag'i	10.000 so'm;
